



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 20-mart, juma,
26 (24.206)-son

Ziyoratgoh
xalqimiz uchun,
jahondagi barcha
musulmonlar uchun
ezgulik va maʼrifat
nurini taratadigan
qutlugʻ maskanga
aylanadi

**Shavkat
MIRZIYOYEV.**



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

IMOM БУХОРИЙ ЁДГОРЛИК МАЖМУАСИ — ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ ДУРДОНАСИ

Президент Шавкат Мирзиёев Самарқандга таширининг
иккинчи куни Пайариқ туманида қайтадан бунёд этилган
Имом Бухорий мажмуасига ташриф буюрди.

Зиёратгоҳнинг қоқ марказида буюк ҳадисшунос бобомиз-
нинг табаррук мақбараси ўрин олган.

Давлатимиз раҳбари мақбарани зиёрат қилди. Қуръон
тиловат этилиб, дуо ўқилди.

– Муборак Рамазон ҳайити арафасида буюк ватандоши-
миз, ҳадис илмининг султони Имом Бухорий ҳазратларининг
руҳи покларига яна бир бор ҳурмат-эҳтиром бажо келтир-
моқдамиз. Бухорий бобомиз Қуръони қаримдан кейинги энг
муътабар манба бўлган ҳадислар китобини яратиб, бутун
ислом оламида шўҳрат қозонган улўғ сиймодир. Муқаддас
заминимиз дунёга мана шундай машҳур алломани бергани
билан ҳар қанча фахрланасак, арзийди.

Эл-юртимизнинг фидокорона меҳнати билан бугун
орзу-ниятларимиз рўёбга чиқди. Бу бетақрор зиёратгоҳни
Имом Бухорий бобомизнинг оламшумул мавқеига, юксак
мақомига муносиб даражада бунёд этишга муяссар бўлдик.
Мана шундай табаррук маскан барчамизга муборак бўлсин,
– деди давлатимиз раҳбари.

Президент Шавкат Мирзиёев Имом Бухорий мажмуасида
яқунига етган бунёдкорлик ишлари ва яратилган шароитлар
билан танишди.

Мажмуа давлатимиз раҳбари ташаббуси билан буюк
муҳаддис бобомизнинг ислом оламида тутган юксак мавқеи,
ўлкан салоҳиятига муносиб тарзда қайтадан бунёд этилди.
Зиёратчиларга ҳар томонлама қулай шароит яратилди.

Хусусан, мажмуа қошида туризм маркази очилди. Ёндош
15 гектар майдонда замонавий инфратузилма яратилиб,
шинам меҳмонхоналар, хизмат кўрсатиш ва сервис нуқта-
лари барпо этилди. Жўмладан, 1 та тўрт юлдузли, 2 та уч
юлдузли меҳмонхона, 22 та 176 ўринли оилавий меҳмон уй-
лари ҳамда автотураргоҳ қурилган. Мазкур объектлар тўлиқ
коммуникация тармоқлари билан таъминланиб, ҳудудда
ободонлаштириш ишлари амалга оширилган.

Натижада Имом Бухорий мажмуаси илгари бир кунда 12
минг зиёратчига хизмат кўрсатган бўлса, ҳозир кунига 65
минг нафар зиёратчини қабул қилиш қувватига эга.

Мажмуанинг ўзи Самарқанднинг, Янги Ўзбекистоннинг
дурдонаси бўлиб қад ростлади. Унинг майдони 45 гектарни
ташқил этади. 10 минг кишига мўлжалланган ўлкан масжид,
маъмурийат биноси, 154 устуни, миллий услубдаги муҳта-
шам айвон қурилди.

Мажмуа таркибида энг илғор ахборот технологиялари
асосида 9 павильондан иборат ноёб инновацион музей
барпо этилди. У ислом оламида муҳаддислар султони дея
эътироф этилган Имом Бухорийнинг ҳаёти ва илмий ме-
роси, ислом маърифати ривожига қўшган ҳиссасини намоён
этади. Шунингдек, музейда Қуръони қаримда исмлари зикр
қилинган 25 пайғамбар тарихи, Муҳаммад алайҳиссалом-



нинг шажараси, Макка ва Мадинадаги ҳаёти, ҳадисларнинг
жамланиши ва ёзилиши ҳақидаги маълумотлар жойлашти-
рилган.

Қадмжода 14 та мовий гўмбаз, 75 метрлик 4 та минора
унга улўғвор қиёфа бағишлаб турибди.

Давлатимиз раҳбари туризм маркази ва масжидда яра-
тилган шароитларни кўздан кечирди.

Маълумки, бир ярим минг йиллик ислом тарихини,
илм-маърифатини юртимиздан етишиб чиққан буюк олим
улаомларнинг номларисиз тасаввур этиб бўлмайдди. Шу кун-
ларда расман очилган Ўзбекистондаги Ислам цивилизацияси
маркази ҳам бу ҳақиқатни яна бир бор тасдиқлайди.

Бутун мусулмон оламида ҳадис илми ҳақида гап кетса,
ҳеч шубҳасиз, бизнинг диёримиз биринчилар қаторида тил-
га олинади. Чўнки Имом Бухорий, Имом Термизий каби буюк
ҳадисшунос олимлар айнан мана шу замин фарзандларидир.

Хусусан, Имом Бухорийнинг “Саҳиҳи Бухорий” китоби
дунёда тан олинган энг муътабар олита ҳадис китобининг
биридир. Ўн ёшидан бошлаб ҳадис илмини ўрганган аллома

бобомиз 20 дан ортиқ асар ёзганлар. Улар то хануз дину
диёнатимизни мустаҳкамлаш йўлида ислом умматига хизмат
қилиб келмоқда.

Президентимиз ҳар гал Самарқандга келганида мажмуа-
нинг қурилиш жараёни билан танишиб, бу жой фақат зиёрат
эмас, илм-маърифат, тарбия ва ибрат маскани бўлиши,
Имом Бухорийнинг буюк изланишлари, билими ҳамда қамол-
лоти зиёратчилар, айниқса, ёшлар учун эзгу намуна бўлиши
кераклигини таъкидлаганди.

– Ушбу бетақрор қурилиш янги Ўзбекистоннинг ўлкан
имкониятларини яққол намоён этади. Зиёратгоҳ халқимиз
учун, жаҳондаги барча мусулмонлар учун эзгулик ва маъ-
рифат нурини таратадиган қутлўғ масканга айланади деб
ишонаман. Аминманки, бу даргоҳни зиёрат қилиб, унинг
маънавий муҳитидан баҳраманд бўлган инсон, айниқса,
ёшлар ислом динининг асл маъносини англаб этади, тўғри
йўлдан адашмайди, – деди Президентимиз.

Шунинг учун ҳам Имом Бухорий мажмуасида маъна-
вий-маърифий ишларни кенг йўлга қўйиш, уни чинакам тар-

бия ва ибрат мактабига айлантириш, бу ерда имом-хатиб-
лар, маҳалла фаоллари учун малака ошириш дастурларини
кўчайтириш лозимлиги таъкидланди.

Бу ердаги барча ишлар яқунига етганини ҳисобга олиб,
янги қурилган муҳташам масжидда Ҳайит намозини адо
этиш тақлиф қилинди, бу мўмин-мусулмонларимиз, бутун
эл-юртимизнинг кўнглидаги иш, халқимизга муносиб Рама-
зон совғаси бўлиши таъкидланди.

Президент Шавкат Мирзиёев вилоятга ташрифи давоми-
да Самарқанд шаҳридаги Имом Мотуридий ёдгорлик маж-
муасида амалга оширилаётган бунёдкорлик ишлари билан
танишди.

Давлатимиз раҳбарининг қарорига мувофиқ, ўтган йили
юртимизда ақида илмининг асосчиси Абу Мансур Мотуридий
таваллудининг 1155 йиллиги кенг нишонланди. Шу муно-
сабат билан Самарқанд шаҳридаги Чокардиза қабристонини
ҳудудда Имом Мотуридий мажмуасини қайта таъмирлаш ва
ободонлаштиришга киришилганди.

Айни пайтда мажмуа ва унинг атрофида қурилиш-обо-
донлаштириш ишлари давом этмоқда. Умумий майдони 26
гектар бўлган ҳудудда Имом Мотуридий мажмуаси қайта қу-
рилиб, 250 ўринли масжид, кириш пештоқи, илмий марказ,
кўтубхона, музей ва автотураргоҳ бунёд этилмоқда.

Шунингдек, қурилиш ишлари жараёнида Чокардиза
қабристонига буюк фақиҳ Бурҳониддин Марғиноний дафн
этилган жой ҳам аниқланиб, бу ерда мақбара қурилмоқда.

Алломалар ёдга олинди, Қуръон тиловат қилинди.

Давлатимиз раҳбари бунёдкорлик ишларини кўздан
кечириб, ушбу маскан дунё мусулмонлари таълимотини зи-
ёрат манзилларидан бири эканини қайд этиб, бу ерда улар
учун замон талабларига мос шароит яратиш зарурлигини
таъкидлади.

– Мажмуага келган киши аввало Имом Мотуридий бо-
бомизнинг илмий-маънавий мероси, ислом оламида тутган
мавқеи ҳақида ёрқин тасаввурга эга бўлиши, алломанинг
маърифатпарвар қарашлари бугун ҳам долзарблигини ҳис
қилиши керак, – деди Президент.

Қурилишни сифатли ва ўз вақтида бажариш, ҳудудда яшил
майдонларни кўпайтириш юзасидан топириқлар берилди.

Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев Самарқанд
шаҳридаги Ҳазрати Ҳизр мажмуасида бўлиб, мамлакат-
мизнинг Биринчи Президенти Ислам Каримов мақбарасини
зиёрат қилди.

Қуръон оятлари тиловат этилиб, дуо ўқилди.
Бугунги айём кўнларига улўғ аждодларимиз ва бу дунё-
дан ўтган яқинларимизни ёд этиш, уларнинг эзгу ишларини
эслаш хайрли амаллардан экани таъкидланди.

Шунинг билан давлатимиз раҳбарининг вилоятимизга
ташрифи якунланди.

ЎЗА хабарлари асосида тайёрланди.

**19-mart kuni xalq deputatlari
viloyat Kengashining yigirma
sakkizinchi sessiyasi oʻtkazildi.
Sessiya ishini Kengashdagi
OʻzLiDeP deputatlik guruhi aʼzosi
H.Oʻroqov boshqardi.**

Dastlab viloyatda 2025-yilda davlat or-
ganlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi
faoliyati hamda huquqni qoʻllash amaliyo-
ti, huquqiy targʻibot va maʼrifatning holati
toʻgʻrisida **viloyat adliya boshqarmasi
boshligʻi S.Sattorovning** axboroti eshitildi.

Qayd etilishicha, oʻtgan yil viloyat ad-
liya organlari tomonidan norma ijodkorligi
sohasida 415 ta normativ-huquqiy hujjat
loyihasi huquqiy ekspertizadan oʻtkazilgan.
Koʻrib chiqilgan hujjatlarning 372 tasiga
ijobiy xulosa berilgan, 43 ta loyiha belgilan-
gan talablarga javob bermaganligi sababli
qaytarilgan. “E-qaror” elektron tizimi orqali
2025-yilda viloyat va tuman (shahar) hokim-
liklari tomonidan 12 ming 320 ta qaror va
farmoyish qabul qilingan. Huquqni qoʻllash
sohasida 2205 ta nazorat tadbiri, 1405 ta
monitoring hamda 800 ta oʻrganish ishlari
amalgacha oshirildi. Bu jarayonda 88 ming
234 ta qonunbuzilish holati aniqlanib, ularni
bartaraf etish choralari koʻrilgan. Hisobot
davrida jismoniy va yuridik shaxslardan
7361 ta murojaat kelib tushgan boʻlib,
murojaatlarning 3971 tasi qanoatlanirilgan,
3390 tasi yuzasidan huquqiy tushuntirish
berilgan. Davlat xizmatlari markazlari to-
monidan yil davomida 1 million 568 ming-
dan ortiq davlat xizmatlari koʻrsatilgan.

Deputatlar axborot yuzasidan oʻzlarini
qiziqitirgan savollarga boshqarma bosh-
ligʻidan javoblar oldilar hamda qayd etilgan
masalalar boʻyicha taklif, tavsiyalar bildirildi.

Soʻngra **Ijtimoiy himoya milliy agentligi
viloyat boshqarmasi boshligʻi Sh.Yoʻldo-**

Deputatlar rahbarlarni eshitdi



shev viloyatda aholini ijtimoiy himoya qilish va
ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish sohasida amalga
oshirilayotgan ishlar haqida hisobot berdi.

Hisobotda keltirilishicha, oʻtgan yil
viloyatdagi 320 ming nafar muhtoj shaxslar
540 ming ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab
olinib, qamrov 3,6 barobargacha oshdi. Natija-
da ijtimoiy masalalar boʻyicha murojaatlar
qariyb ikki barobar qisqardi.

– 2025-yil 1-iyuldan boshlab “Faol
hayotga qadam” dasturi asosida 4541
nafar oʻzgalar parvarishiga muhtojlarga
ijtimoiy-tibbiy reabilitatsiya xizmatlari koʻrsa-
tildi, – dedi Sh.Yoʻldoshev. – Natijada 421
nafar oʻzgalar parvarishiga muhtoj shaxslar
sogʻligʻi qayta tiklandi, ular parvarishida
boʻlgan 624 nafar oila aʼzolari bandligi
taʼminlandi, daromadi oshganligi sababli
95 ta oila kambagʻallik reestridan chiqar-
ildi. Oʻtgan yil nogironlarni reabilitatsiya
qilish markazida 2726 nafar, tuman (sha-

har) markaziy shifoxonalari reabilitatsiya
boʻlimlarida 7940 nafar nogironlarga xizmat
koʻrsatildi. 343 nafar imkoniyati cheklangan
bolalar inklyuziv taʼlimga jalb qilinib, qamrov
oʻtgan yilga nisbatan 3 barobargacha oshdi. Ilk
bor maktabgacha taʼlimda inklyuziv guruhlar
tashkil etilib, 105 nafar bola taʼlim bilan
qamrab olindi. Yil davomida 11 mingdan or-
tiq nogironligi boʻlganlar bandligi taʼminlan-
di, 5 ming nafari adaptiv sportga jalb qilindi.
Bu ishlar samarasida 2025-yil 15-26-noyabr
kunlari Tokioda boʻlib oʻtgan XXV Surdlimpi-
ya oʻyinlarida viloyatimiz vakillari 1 ta oltin, 4
ta kumush va 4 ta bronza medallarni qoʻlga
kiritib, Surdlimpiya tarixida eng yuqori natija
qayd etdi.

Boshqarma boshligʻi joriy yilda amalga
oshiriladigan asosiy maqsadli koʻrsatkichlar
haqida ham maʼlumot berdi. Jumladan,
bu yil 5,6 ming nafar nogironlarning ban-
dligini taʼminlash, 6,8 ming nafari adaptiv

sport turlariga jalb qilinishi, 14,1 ming nafar
muhtojlarga reabilitatsiya va protez mahsu-
lotlari berilishi, 36 mingdan ortiq nogironligi
boʻlgan shaxslar yangi standart asosida
koʻrikdan oʻtkazilishi rejalashtirilgan. 27,6
ming nafar davlat va xususiy sektordagi
ishchilar ijtimoiy sugʻurta bilan, 128,6 ming
oila ijtimoiy karta xizmatlari bilan qamrab
olinadi. Xususiy sektor qamrovi oshirilib,
560 nafar taʼlimga layoqatsiz nogiron bo-
lalariga “Kunduzgi parvarish” xizmati, katta
yoshdagi 5 ming nafar oʻzgalar parvarishiga
muhtoj shaxslarga “Faol hayotga qadam”
dasturi asosida ijtimoiy-maishiy va tibbiy
xizmatlar koʻrsatiladi.

Shundan soʻng xalq deputatlari viloyat
Kengashidagi korrupsiyaga qarshi ku-
rashish va xavfsizlik masalalari boʻyicha
doimiy komissiyasi tomonidan “Hududgaz
Samarqand” gaz taʼminoti filialida korrup-
siyaga qarshi kurashish borasida amalga
oshirilayotgan ishlarni oʻrganish natijalari
muhokama qilindi. Korrupsiyaga qarshi ku-
rashish hududiy kengashi yigʻilishida qayd
etilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf
etish yuzasidan koʻrilgan choralar natijasida
lavozim yoʻriqnomasi orqali belgilab beril-
gan vazifalarini ixtisari darajada bajarmagan
18 nafar xodimga intizomiy jazo choralari
qoʻllanilgani, xizmat vazifasini suisteʼmol
qilgan 8 nafar masʼul xodim bilan tuzil-
gan mehnat shartnomalari bekor qilingani
maʼlum qilindi. Sohada xodimlarning faoli-
yatini raqamlashtirish orqali korrupsion
holatlarning oldini olish maqsadida 20
nafar mahalla gazchilari bodikamera bilan
taʼminlangan va 100 ta shunday uskunaga
buyurtma berilgan. Suyultirilgan gaz balloni
tarqatadigan 95 ta maxsus avtomashinalar

kamera bilan jihozlangan. 131 nafar chil-
angar-taʼminotchi “Face-ID” dasturi orqali
suyultirilgan gaz balloni tarqatishi uchun
planshetlar bilan taʼminlangan.

Muhokama jarayonida filial rahbariga
tizimda korrupsiyaviy holatlarning oldini
olish va bunga imkon beradigan omillarni
bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar aytil-
di.

“Oʻzboshimchalik bilan egallab olingan
yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan
binolar va inshootlarga boʻlgan huquqlarni
eʼtirof etish toʻgʻrisida”gi Qonunga koʻra,
Kadastr agentligining “Eʼtirof” avtomat-
lashtirilgan axborot tizimi orqali kelib tush-
gan hujjatlar asosida 2220 nafar fuqaroning
oʻzboshimchalik bilan egallab olingan yer
uchastkasiga boʻlgan ijara huquqi hamda
ularda qurilgan bino va inshootga boʻlgan
mulk huquqi qonuniy tartibda eʼtirof etildi.

Sessiyada yuridik shaxslarning mol-mulk
soligʻi, yer soligʻi va suv resurslaridan foy-
dalanganlik uchun soliq toʻlash muddatini
kechiktirish (boʻlib-boʻlib toʻlash), Jahon
bankining soliqʻliqni saqlash loyihalari sogʻliqni
saqlash vazirligi oʻrtasidagi oʻzaro hamkor-
likda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan
“Shoshilinch tibbiy yordam xizmatini takom-
illashtirish” (ikkinchi bosqichning qoʻshim-
cha moliyalashtirishi) loyiha konsepsiyasi-
ni tasdiqlash, Samarqand viloyati boʻyicha
2026-yil davomida “E-auction” savdo
platformasi orqali sotuvga chiqariladigan
yaylov yer maydonlarini tasdiqlash, viloyat-
da xavfsiz muhitni shakllantirish, jamoat
xavfsizligini samarali taʼminlash boʻyicha
Toshkent shahar tajribasi asosida uyushgan
jinoyatchilik va narkojinoyatlar, shuningdek,
kiberjinoyatlar hamda yashirin iqtisodiyot-
ning oldini olishga qaratilgan chora-tadbir-
lar toʻgʻrisidagi va boshqa masalalar ham
koʻrib chiqilib, Kengash qarorlari qabul
qilindi.

YANGI MAHSULOT, MO'L HOSIL, ZAMONAVIY YONDASHUV

agrar industriyamiz shu taxlit taraqqiy etishi kutilmoqda

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida innovatsion yondashuvlar, ilmiy tadqiqotlar va zamonaviy texnologiyalar joriy qilinishi natijasida yangi turdagi mahsulotlar yetishtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa nafaqat ichki bozorni sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlash, balki eksport salohiyatini oshirishga ham xizmat qilyapti.

IKKINCHI NONIMIZ MO'L BO'LADI

Ayni paytda ko'pchilik bilmaydi, viloyatda kartoshka yetishtirish bo'yicha katta tajriba bor. Yetishtirilgan kartoshka nafaqat viloyatimiz aholisi, balki Toshkent shahri va boshqa viloyatlarga ham yetkazib beriladi.

Joriy yilda sohani yanada rivojlantirish, hosil-dorlikni oshirish va urug'likni o'zimizda yetishtirish bo'yicha zarur ishlar olib borilmoqda. Xususan, ayni paytda 25 ming gektar maydonga urug' qadab, 800 ming tonna kartoshka yetishtirish rejalashtirilmoqda.

Mazkur yo'nalishda "Bulung'ur-Agro Star" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda 1,5 million dona mini-tuganakdan super-elita urug'larini tayyorlash ishlari amalga oshiriladi.

Gollandiyaning AGRICO Co.LTD kompaniyasidan elita kartoshka urug'ini olib kelish va ixtisoslashgan tumanlardagi kartoshkachilik xo'jaliklariga ustamasiz tarqatish choralari ko'rilyapti. Pirovardida 2 ming gektar maydonda kartoshka ekish orqali 60 ming tonna hosil olinib, 50 ming tonna (R1) urug'lik va 10 ming tonna iste'mol uchun kartoshka zaxirasi yaratiladi.

Bundan tashqari, joriy yilda Gollandiyaning "Agrico Co.LTD" kompaniyasi bilan hamkorlikda 6 ming tonna hosildor elita urug' olib kelish bo'yicha shartnoma tuzilgan.

Yil davomida Bulung'ur tumanining 27 mahallasidagi 17 ming gektar tomorqa yerlarida hosildorligi yuqori bo'lgan elita kartoshka urug'i ekish yo'lga qo'yiladi.

Jomboy tumanida esa 2 gektar maydonda qiymati 16 milliard so'mlik zamonaviy agromajmua ishga tushiriladi. Loyiha doirasida "Tomorqa maktabi", ta'minot va agroxizmatlar markazlari, transport-logistika xizmati, 200 tonna sig'imli muzlatkich ombor, shuningdek, saralash, qayta ishlash va qadoqlash sexlari tashkil etiladi.

Shuningdek, Oqdaryo tumanida "Goldenseed" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan qiymati 4 million dollarlik zamonaviy kartoshkachilik klasteri faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Umumiy maydoni 5 gektar bo'lgan korxona yerlarining 3,6 gektarida issiqxona tashkil etilgan. 100 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan korxonada yiliga 6 million dona mini tuganak urug'larini tayyorlanib, 60 gektar maydonda ekiladi. Bundan 1200 tonna yuqori avlod urug'lik kartoshka olinadi.

Umuman, viloyatimiz respublikada kartoshka urug'chiligi bo'yicha tayanch hududga aylantiriladi va to'liq sikll — ilmdan tayyor mahsulotgacha bo'lgan tizim yaratiladi.

MAYIZCHILIK — ISTIQBOLLI SOHA

Qo'shrabot, Ishtixon va Urgut tumanlarida ushbu soha ancha ommalashgan. Biroq zamonaviy yondashuv va ilmiy asoslardan foydalanilmagani oqibatida o'zgarish kuzatilmagan. Shu sababli endi tomorqa, fermer va dehqon xo'jaliklari yerlarida tuproq tahlillari o'tkazilib, xorijiy mutaxassislar tavsiyasi asosida uzum ko'chatlarini ekish choralari ko'rilmogda.

Buning uchun yetakchi bog'bonlar guruhi Turkiyaning Manisa viloyatiga borib, turkiyalik hamkorlar Qo'shrabotga taklif etildi. Hamkorlar bilan uzumchilik sohasida hosildorlikni 2 baravargacha oshirish mumkinligi hisob-kitob qilindi. Shundan kelib chiqib, barcha mayizbop uzumzorlar bosqichma-bosqich to'liq shpalerga o'tkazilishi belgilandi. Joriy yilning o'zida 3,5 ming gektar uzumzor shpalerga o'tkaziladi.

Yangi tashkil etiladigan uzumzorlarni hosildor va eksportbop tok navlariga payvandlash ishlari Turkiyaning



"Tek-bag" kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda.

Umuman, o'tgan yili Latviya, Litva, Turkiya hamda Ozarbayjon davlatlariga 1,1 million dollarlik 531 tonna mayiz eksport qilingan. Joriy yilda «Milliy brend» nomi ostida 5 million dollarlik eksport amalga oshirish rejalashtirilgan.

Jahon mayiz bozorida brend nomini keng yoyish uchun "Samarqand mayizi" geografik ko'rsatkichi va "Qo'shrabot mayizi" tovar belgisi ro'yxatdan o'tkazilib, Boku va London shaharlarida tashkil etilgan ko'rgazmalarda ishtirok etdi.

Bundan tashqari, "Qo'shrabot agro-star" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan Qo'shrabot tumanida 130 gektar yerda qiymati 63 milliard so'mlik agrosanoat majmuasi tashkil etiladi.

Loyiha doirasida yillik 500 ming dona ko'chat yetishtirish, 400 tonna mayiz ishlab chiqarish va 1500 tonna mahsulotni qayta ishlash quvvati yaratiladi. Natijada eksport hajmi 2 million dollariga yetkazilib, 20 ta doimiy va 100 ta mavsumiy ish o'rni yaratiladi.

Ishtixon tumani To'por mahallasida 5 gektar maydonda quruq mevalarni qayta ishlash loyihasini ishga tushirish hamda Urgut tumanida 200 gektar maydonda terassa usulida uzum ekish ishlari olib borilmoqda.

QIMMATLI YONG'OQ YETISHTIRILIB, QAYTA ISHLANADI

Bodom — sink, foydali yog'lar va vitaminlarga boy, asab tizimi, soch va teri go'zalligi uchun o'ta foydali bo'lgan qimmatli yong'oq mahsuloti. U immunitetni mustahkamlaydi, kayfiyatni ko'taradi va gormonal muvozanatni saqlashga yordam beradi, tarkibidagi moddalar bilan organizmni yoshartirish xususiyatiga ega.

Biroq biz shunday foydali xususiyat va Yevropa bozorida yuqori talabga ega bo'lgan bu mahsulot yetishtirishga yetarli e'tibor bermaganmiz. Bu "an'ana"ga endi chek qo'yiladi.

"Jomboy Agro Star" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan Jomboy tumani Xitoypon mahallasida 24,9 gektar, Bulung'ur tumani G'o'bdin mahallasida 15 gektar maydonda zamonaviy, yashil texnologiyalarga asoslangan bodom plantatsiyalari barpo etilmoqda.

Tahillarga ko'ra, bodom 4-yildan hosilga kiradi, 7-yilda to'liq quvvatga chiqadi va har gektardan o'rtacha 5 tonna hosil olinadi. Demak, faqat 24,9 gektar maydonning o'zida yiliga 125 tonna yoki 16 milliard so'mlik mahsulot yetishtirish mumkin.

Shuningdek, Jomboy tumanida 10 ta mahalladagi 152 ta, Bulung'ur tumanida 6 ta mahalladagi 96 ta oilaga yetti ming tupdan ko'proq bodom ko'chatlari tarqatiladi. Bodomchilar ko'chasi va Sariqipchoq mahallasida 5 gektar maydonda 18 ta dehqon xo'jaligi ishtirokida bodom bog'i tashkil etiladi.

Hozirda eksportbop, kech gullaydigan "Mardiya" va "Avijor" navlaridan 20 ming tup ko'chat zahirasi yaratilgan.

Joriy yilda qiymati 16 milliard so'm bo'lgan zamonaviy agrokompleks - agroxizmatlar markazi transport-logistika markazi, 200 tonna sig'imli muzlatkich ombor, saralash, qayta ishlash va qadoqlash sexlari ishga tushiriladi. Bu yerda yiliga 800 tonna yong'oq, bodom va pista qayta ishlanadi. Natijada 550 tonna mahsulot eksportga yo'naltirilib, 6,5 million dollar eksport hajmiga erishiladi.

Y.MARQAYEV tayyorladi.



SAMARQAND VILOYATI AVTOMOBIL YO'LLARI BOSH BOSHQARMASI

viloyatimiz ahlini va mehmonlarini

Navro'zi olam
va
Ramazon hayiti

bilan samimiy tabriklaydi.



Bugun minglab bolalar ota-onasining mehrini quchoqda emas, telefon ovozida his qilmoqda. Aksariyat bolalar onalariga hissiy bog'langan bo'ladi. Ular tongni onasiz qarshi oladi, muammolarini yaqin insonlariga ayta olmasdan ichiga yutadi, sog'inchini esa ko'z yoshlari bilan yashiradi. Ona xorijda - tirikchilik tashvishida, bola esa bu yerda - ruhiy bo'shliq bilan yolg'iz.

Ona - bola uchun shunchaki parvarishlovchi emas. U xavfsizlik, ishonch va mehr manbai hisoblanadi. Aynan ona yonida bola o'zini kerakli, qadrlangan, erkin his qiladi. Ona uzoqda bo'lsa, bu tuyg'ular masofada qoladi. Telefon orqali aytilgan "jonim bolam, seni yaxshi ko'raman, sen uchun men shu yerdaman", deyishi bolaning boshini silaydigan qo'l o'rnini bosa olmaydi.

Bunday bolalar ko'pincha o'z qobig'iga o'rallib qoladi, muloqotdan qochadi. Ba'zilar tajovuzkor bo'lib boradi, mehrni ko'chadan

Ota-onasiz ulg'ayayotgan bolalik

izlaydi. Eng yomoni, ular o'zlarini ortiqcha, keraksiz his qila boshlaydi. Bu esa kelajakda o'ziga ishonchsizlik, qo'rquv va mehrga chanoqlikni keltirib chiqaradi. Atrofdagilar, bolaning yaqinlari esa bu og'riqni ko'pincha sezmaydi, ko'rmaydi. Bolaning qorni to'q, usti but, deyish noto'g'ri. Aslida esa u ichidan sinib borayotgan bo'ladi.

Albatta, ota-onalarni ayblash oson. Ammo muammo faqat ular-da emas. Bu - jamiyat muammosi. Qarindoshlar, maktab, mahalla, hatto oddiy e'tibor ham bu bolalar uchun tayanch bo'la oladi. Eng muhimi - bolani tinglash kerak. Uning hislari inkor etilmasligi lozim.

Bugungi kunda Narpay tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi psixologlar guruhi 12 toifadagi shaxslarga psixologik xizmat ko'rsatib kelmoqda. 2024-yilning may oyidan bugungi kunga qadar 768 nafar fuqaroga xizmat ko'rsa-

tildi. Hozirda ota-onasi xorijiy davlatga ketgan bolalarning aksariyati o'smirlik yoshidaligini inobatga olsak, ularda tana va ruhiy jihatdan o'smirlik davriga o'tishi jarayoni bo'lib, bu holat 9-14 yoshda boshlanadi va o'smirlikning 16-18 yoshgacha davom etadigan davrini qamrab oladi. 13-14 yosh balog'atning faol bosqichi hisoblanadi, bunda bolalarda fiziologik, psixologik o'zgarishlar bir vaqtning o'zida yuz beradi. Bunday vaqtda bolaga alohida e'tibor, atrofda qishlarning ko'magi, qo'llab, quvvatlashi kerak bo'ladi. Biz psixologlar fuqarolarning ruhiy salomatligini saqlash, mustahkamlash va muammolarini hal qilishda, hayotiy stress, tushkunlik, qo'rquv, oilaviy nizolar bo'yicha suhbatlar, shaxsiy rivojlanish masalalari bo'yicha ishlar olib boramiz.

B.ASOMIDDINOVA,
Narpay tuman "Inson"
ijtimoiy xizmatlar markazi
psixologi.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Hamid Azimurodovich notarial idorasida marhum Melikova Zavkiya Saitovnaga (2025-yil 26-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Hamid Azimurodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasida marhum Karimov Samega (1988-yil 9-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Samisov Mamasoli Qorigitovichga (2021-yil 14-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Qarshiyeva Maxfuratga (2021-yil 27-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Mardiyeva Shodad Mavlanovnaga (2025-yil 29-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 117-uy.

TOPGANGA MUKOFOT!

Samarqand viloyat ichki ishlar boshqarmasidan Xamrakulov Shodmon Sharifovichga berilgan pensiya guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99890-502-52-48.

Guliston ahlina bu kun erur ham Iyd-u ham Navro'z...

Bahor mavzusi adabiyot singari qadimiylir. Sharq adabiyotida bahor fasli, uning tasviriga alohida e'tibor berishgan. Bu faslida qishning sovuqliklardan, izgi'rinlaridan omon chiqqan xalqning xursandchiligi, orzu-umidlari, ke-lajakka ishonchi, boringki, hayot o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham bahor tasviri ko'plab qasidalarining nasib qismida tilga olingan mavzulardan sanaladi. Bahor tasviri bilan boshlangan qasidalar bahoriya qasidalar deb yuritiladi. O'zbek adabiyotida yaratilgan Sakkokiyning uchta, Rojiy Xorazmiyning bitta, Munisning bitta, Ogahiyning o'nta, Bayoniyning bir qasidasi nasibi bahoriyadir. Bunday qasidalarda Bahor, Navro'z, Quyosh, Hut, Hamal, Gul, G'uncha, Bulbul, Qumri, Sarv, Savsan, Nargis, Sabo, Mezon, Chaman, Shamol, Chinor kabi timsollar ko'zga tashlanadi.

Sakkokiyning bir qasidasi bahor mavsumi kelib, jahonni shodu xurram qilgani, gul shoxiga chamanda taxtu haram yasagani tasviri bilan boshlanadi. Qasidada yengil shamolning holi Iso alayhissalom nafasiga o'xshatilib, u og'zini ochsa, o'likni tiriltirishi, hoi tili bilan chamanga shodlik kelib, g'am, xafalik ketgani ta'kidlanadi. Shoir chaman ahli – gullarning qizilu yashilga burkanib yasanishini yasanib to'y yoki bayramga ketayotgan qizlarga o'xshatib, chamanda to'y yo bayram bormikan, deydi. Bulbul tarona boshlaydi, gul sarxush bo'lib o'tiradi, kimdir pastda, kimdir balandda joylashib o'tiradi, bulbulning taronasiga gul kulardi (chunki u ochilgan), g'uncha esa tabassum qiladi-yu o'zini tutadi (ochilmaydi). Bulbul o'z ovozi bilan ming sirni fosh etadi, gul oldida ozod savsan tilini uzun qiladi, garchi soqovu gung bo'lsa ham. Ushbu o'rinda shoir gung so'zining ikki ma'nodoshidan – alkin va abkamdan foydalangan:

*Hazor sirni qilur fosh bulbul uni bila,
Bu gulga xilvat evinda nedin erur mahram.
Uzotti tilni gul olland savsani ozod,
Agarchi bandi bikin erur alkinu abkam.*

Nargisning ko'zini suzib, karashma-yu noz qilganiga olam shaydo bo'lishi, go'yo chamanga guldai yangi kelin tushib, erta tong uning ustiga shabnamlardan inju sochishi, binafsha esa gulistonga yomon kishining ko'zi tegmasin deb ko'p g'am yeyishi bayon etiladi. Husni ta'lil vositasida sabo biror muxolifdan xabar keltirgani uchunmikan chamanzorda sabza cherik to'plab, lola bayroq yoygani haqida yoziladi. Qiylaliklarda esa bulut nog'ora urib, lashkar to'playdi, saharga borib bo'ron tinib, shon-shavkat ahli yasaladi:

*Yoxud xabarmu kelturdi sabo muxolifdin,
Yasodi sabza cherigiyu lola tikti alam.
Qiyolar uzra bulut urdi ko'su yig'di sipoh,
Saharda qo'ldi chobqun, yasodi xayl-u hasham.*

Munis qasidalarida ichida bitta qasidaning nasibi bahoriya bo'lib, davomi na'tdir. Qasida quyidagi misralar bilan boshlanadi:

*Mujdaki, ohuyi mehr hutdin aylab guzar,
Qildi hamal dashtining gulshani sabzin maqar.*

Ya'ni, mehr ohusi – quyosh hutdan o'tib, hamal dashtining yashil gulshanini maskan qildi.

Xuddi shunday tasvir Ahmad Tabibiyning bir qasidasida ham uchraydi. Unda Xovar shohi – quyosh hut dashtidan o'tib, jadal yurib hamal gulzorini makon qilgani tasvirini ko'ramiz:

*Shukrullillahkim, bo'lub Haq lutfi elga mehribon,
To'ldi yaksar behjat-u fayz-u safo birla jahon.
Ya'ni shohi xovar aylab Hut dashtidin guzar,
Ko'rguzub sur'at hamal gulzorini qildi makon.*

Ogahiyning bir nechta qasidasida ham shunday tasvirga duch kelamiz. "Ta'viz ul-oshiqin"dagi birinchi qasidada quyoshning zarrin kiyigi hut dashtidan hurkib ketib, hamalning yashnagan bo'stoni ichida bezanib jilvalanayotgani tasviri keltiriladi:

*Quyosh zarrin g'izoli ko'rguzub
ram hut dashtidin,
Hamal sarsabz bo'stoni
ichida jilvaperodur.*

Muhammad Yusuf Bayoniyning bir qasidasida nasibida xovar sultoni – quyosh hamal taxti ustida qaror topgani bayon etiladi:

*Sultoni xovar, chun hamal
taxti uro topti qaror,
Elga karam oyinidin lutfini
qildi oshkor.*

Nega barcha qasidalarda hut dasht, hamal esa gulzor,



bo'ston, gulshan, riyoz atamallari bilan sifatlanmoqda. Hut qishning so'nggi oyi sanaladi. Uni har qancha yomonlasa, har qanday kishiga ma'qul bo'lmaydigan sifatlar bilan tilga olsa bo'ladi. Hamal esa bahorni boshlab keladi. Shuning uchun ham hamal yangilanishning boshlanishi sifatida maqtashga arziydi.

Munisning yuqoridagi qasidasida bahorning yana bir xususiyati tilga olinadi. U kunning tun bilan teng

bo'lishi, undan keyin kun uzayib, tun qisqarib borishi holatidir. Qasidada shoir mumtoz atamalardan foydalangan holda kunduz mustazodning misrasiday darajalar bilan ortib, tun g'azali vaznidan kam-kam olinib qisqarishini bayon etadi:

*Kunduz o'lub mustazod misrayi tadrij ila,
Tun g'azali vaznidin kam-kam o'lub muxtasar.*

Ogahiyning bir qasidasida ham shunday tasvir bor bo'lib, unda Navro'z sultoni adolat mezonini tuzatgani, bu tun va kunning vaznida barobarlik oshkor bo'lgani bilan baholanishini bayon etadi:

*Kelib Navro'z sultoni tuzotdi adl mezonin,
Tunu kun vaznida ondin barobarliq huvaydodur.*

Munis qasidasi nasibiga qaytamiz. Unda tasvirlanishicha, bahor bulutlari ehson etagidan nima bo'lsa sohib, butun ho'lu quruqni latif hadyalari bilan to'ldirdi. Ba'zi yomg'irlar daryo ustiga qo'ngan edi, sadaf parvarishidan gavharga aylandi. U shunday aql ko'zining gavhariki, sultonlar toji uning nisbatidan zeblandi, yondi. Har nechta tomchi quruqlik ustiga tushdiki, undan dona ko'kardi, daraxt yam-yashil bo'ldi. Bahor nasimi subh – tong kabi cho'ntagini ochganda, nihon g'uncha sirining ochuvchisi bo'ldi. Gullar o'tashin chehra bilan oshufta bulbulni yanada oshufta qildi. Sunbulu rayhon hidi chamaning dimog'ini ochganidan xijolat tortgan nofa (kiyikning kindigi) xushbo'y mushkka aylandi. Go'zallarning lablari ustidagi xol va xat (mo'y)day bo'lib chashmalar atrofida nilufar va sabzalar o'sdi. Tog'u dashtlarda shunday chaman paydo bo'ldiki, yer yuzi jannat bog'laridek bo'ldi. Sarv ustida qumri bo'yniga shodlik arqonini solib, gul ustida bulbul chah-chah chekardi. Oy yuzilar gulshan go'shasida bazm tuzganda zar jomda may quyoshday yurib davra oladi. Husn tomoshasidan oshiqlar ko'zlari fayz topib, mast bo'lib, visol bilan shodlikka yetdi. shqdan telba bo'lgan ko'ngillar junun zanjiridan ozod bo'lib, olamga xursandchilik taratdilar. Hamma Navro'z jomidan aysh bodasini ichib, shodlik zavqi nash'asini yanada orttirdi.

Ogahiyning yigirma ikki qasidasidan o'ntasi bahoriya nasibli qasidadir. Xususan, "Ta'viz ul-oshiqin" devonidagi birinchi qasidada jonlantirish vositasida bulutni mashshota deb, undan to'kilayotgan yomg'ir tomchilarini gavharga o'xshatib, uning ishini go'zal rayhonlarga zebu oro berish uchun gavhar sochishdir deb ta'rifiyladi.

Rojiy Xorazmiyning bizgacha uchta qasidasi yetib kelgan bo'lib, bir qasidasi nasibi bahoriyadir. U Alloh Taolodan turfa lutfilar baxsh etilib, olam bir guliston gulshaniga o'xshaganini bayon etish bilan boshlanadi. Quyoshning hut burjidan hamal burji tomon xiron qilishi, aqlli kishi bu mavsumni g'animat bilishi, g'aflat bilan bu davrni o'tkazganlarga armon ekanini ta'kidlaydi shoir.

Sakkokiyning bir qasidasida "Guliston ahlina bu kun erur ham Iyd-u ham Navro'z", degan misra bo'lib, qasida yozilgan yilda shu yilgiday Navro'z va Iyd bir kunga to'g'ri kelgan ko'rinadi:

*Guliston ahlina bu kun erur ham Iyd-u ham Navro'z
Ular gul sochtilar, man ham keturdim xush bu halvoni.*

Bahor fasli, Navro'z bayrami sharq xalqlari hayoti va ijodiyotining ajralmas qismi o'laroq mumtoz qasidalarda ham o'z aksini topgan. Ularda bahor bilan bog'liq kosmogonik o'zgarishlar, sayyoralar va burjlarning holatlari, yangilanish, yasharish, hayotga ishonch ifoda etiladi.

Mashhura HASANOVA, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti mumtoz adabiyot tarixi kafedrasida dotsenti.

22-mart – Mirzo Ulug'bek tug'ilgan kun

Mirzo Ulug'bek o'z davrining eng noyob shaxslaridan biri bo'lgan. Ko'pchilik uni temuriylar sulolasining davomchi hukmdorlaridan biri sifatida eslaydi, biroq uning haqiqiy buyukligi siyosatda emas, balki ilm-fandagi fidoyiligi ko'rinadi. U nafaqat hukmdor, balki matematik va astronom sifatida o'z davridan 200 yil oldinga o'tib ketgan. Ulug'bekning hayoti va faoliyati shuni ko'rsatadiki, u ilmni hokimiyatdan ustun qo'ygan kam sonli hukmdorlardan biri. Hukmronlik qilgan davrida u ko'p vaqtini Samarqanddagi rasadxonasida o'tkazgan. Shu bilan birga u ilm-fan va ma'rifat markazi yaratish yo'lida juda ko'p ishlarni amalga oshirgan.



Zamonasidan ikki yuz yil oldin yashagan olim

yoxud o'z davrining yuzlab olimini jamlagan hukmdor

Temuriy hukmdorning Samarqandda qurdirgan rasadxonasi XV asr uchun dunyodagi eng ilg'or ilmiy markazlardan biri hisoblanadi. Bu yerda o'rnatilgan ulkan sekstant yer ostiga qurilgan bo'lib, astronomik aniqlik shunchalik yuqori ediki, Yevropada shunga o'xshash aniqlikka faqat XVII asrda erishilgan. Ulug'bek va uning jamoasi teleskopsiz bo'lgan davrda 1018 ta yulduzni aniqlik bilan ro'yxatga olgan. Natija o'laroq yaratilgan mashhur asari — "Ziji Ko'ragoniy" Yevropada yuzlab yillar davomida astronomlar uchun asosiy manba bo'lgan. Bu fakt uning nafaqat o'z davrida, balki butun ilmiy tarixda qanchalik ulkan iz qoldirganini ko'rsatadi.

Mirzo Ulug'bek faqat astronomiya bilan cheklanmagan, u matematikada ham yetuk olim bo'lgan: trigonometriya bo'yicha sinus qiymatlarini 1 gradus aniqlikda hisoblab chiqqan. O'sha davr uchun bunday aniqlik juda yuqori daraja bo'lib, bu Ulug'bekning matematik tafakkuri qay darajada chuqurligini va ilmiy metodlarga bo'lgan e'tiborini ko'rsatadi. U ilm-fanni faqat nazariya bilan cheklamasdan, amaliy

jihatdan ham rivojlantirishga intilgan.

Samarqandni o'sha davrning ilmiy poytaxtiga aylantirish Ulug'bekning eng muhim yutuqlaridan biri bo'ldi. Ulug'bek madrasasi nafaqat diniy ta'lim markazi bo'lib xizmat qilgan, balki ko'proq dunyoviy fanlar o'qitilgan markaz sifatida faoliyat yuritgan. Bu yerda matematika, astronomiya, falsafa chuqur o'rganilgan va yosh olimlar tayyorlangan. Shu bois bugungi qarash bilan aytilish mumkin – Ulug'bek o'z davrida yuzlab olimlarni bir makon, aziz Samarqandga jamlagan benazir hukmdor!

Ba'zi tadqiqotchilar Ulug'bekning asarlari Johannes Kepler va boshqa mashhur astronomlar tadqiqotlarining rivojiga bilvosita ta'sir qilganini ta'kidlashadi. Shuning o'ziyoq temuriyzodaning dunyo ilm-fani tarixida qanchalik muhim shaxs ekanligining yaqqol isboti, deyish mumkin.

Bugun Mirzo Ulug'bekning hayoti va faoliyati buyuklik faqat hokimiyat bilan emas, balki ilmga sadoqat va fidoyilik bilan o'lchanishiga isbot bo'lib kelmoqda.

SamdChTI talabasi O.UMIROV tayyorladi.

Samarqandda temuriylar davriga oid jangovar nog'ora saqlanmoqda

Samarqand shahridagi Mirzo Ulug'bek muzey-majmuasida ekspozitsiyaga chiqarilgan temuriylar davriga oid ashyolar noyob eksponatlardan sanaladi. Jumladan, "O'zBAT" rahbariyati tomonidan sovg'a qilingan, Abdulloh Tabbadal-Hiraviyning Samarqand qog'ozida yozilgan hadislar to'plami kitobi madrasa talabalari uchun maxsus tayyorlangan. Movarounnahrda Amir Temur va Ulug'bek davrida yerlarni in'om qilish tizimi yo'lga qo'yilib, yer solig'i kamaytiriladi. Buni ijozargacha saqlanib kelinayotgan qo'lyozma hamda vaqf hujjatlarida ham ko'rish mumkin. Shuningdek, mazkur muzeyda XV asrga tegishli, balandligi 24 santimetr bo'lgan jangovar nog'ora hamda Mirzo Ulug'bekning yulduzlar katalogi saqlanmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixida harbiy musiqa muhim o'rin egallagan. Qadimdan harbiy qo'shinlarni boshqarish, askarlarga ruhiy kuch berish va jang paytida signal uzatish maqsadida turli musiqa asboblardan foydalanilgan. Ana shunday asboblardan biri tulinbas deb ataluvchi jangovar nog'oradir. Tulinbas nafaqat musiqa asbobi, balki davlat hokimiyati va harbiy qudrat ramzi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Samarqandda tayyorlangan XV asrga tegishli tulinbas Markaziy Osiyo hunarmandchiligining yuksak darajasini namoyon etuvchi nodir namuna hisoblanadi. Samarqand temuriylar davrida yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlardan biri bo'lgan. Bu yerda metallar ishlov berish, zargarlik, naqqoshlik va kandakorlik san'ati yuqori darajada rivojlangan. Hozirgi kunda Mirzo Ulug'bek muzey-majmuasi ekspozitsiyasida namoyish etib kelinayotgan

tulinbas bronzadan tayyorlangan bo'lib, uning shakli piyozsimon ko'rinishga ega. Bunday shakl nog'oraning akustik xususiyatlarini kuchaytirishga xizmat qilgan. Ashyoning tashqi qismi kandakorlik usulida ishlangan boy geometrik ornamentlar bilan bezatilgan. Naqshlar ichida archaga o'xshash bezaklar uchraydi.

Bunday nog'oralardan asosan harbiy yurishlar, saroy marosimlari va tantanali yig'ilish (parad)larda va ov jarayonlarida foydalanilgan. Tulinbasning asosiy vazifasi qo'shinlarga signal berish hamda askarlarning ruhiy holatini ko'tarishdan iborat bo'lgan. Katta hajmdagi metall nog'oraning ovozi juda kuchli va past tembrli bo'lib, uzoq masofagacha eshitilgan. Shu sababli Amir Temur va uning avlodlari davrida ham harbiy nog'ora boshqaruv tizimining muhim vositalaridan biri hisoblangan.

Markaziy Osiyoda harbiy musiqa an'anasi



aynan temuriylar davrida yuqori darajada rivojlangan. Qo'shinlarda karnay-surnay, katta va kichik nog'oralardan iborat musiqa asboblari bo'lgan. Bu asboblarning jang paytida qo'shinlarning harakatini muvofiqlashtirish va askarlarni ruhlantirish vazifasini bajargan. Jangovar nog'orada restavratsiya ishlari amalga oshirilgan. Ornamentlarni aniqlash uchun restavratsion tozalash ishlari o'tkazilgan va nog'ora ustiga teri membrana qayta o'rnatilgan. Shu bilan birga, nog'ora tanasida ayrim yo'qolishlar va metalning qorayishi kabi vaqt ta'siri izlari ham saqlanib qolgan.

To'lqin BO'RIYEV, "Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasi tarix bo'limi mudiri.

Gazetaning navbatdagi soni 2026-yil 25-mart, chorshanba kuni chop etiladi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 728 nusxada chop etildi. Buyurtma 116. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'OLONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda